



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING OILALAR VA MAHALLIY JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIGI

Sheralieva Munavvar Abdullaevna

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6417579>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-mart 2022

Ma'qullandi: 20-mart 2022

Chop etildi: 25-mart 2022

KALIT SO'ZLAR

Maktabgacha ta'lim, oila, mahalliy jamoatchilik, hamkorlik, tarbiya, bola, maktabgacha yoshdagi bola, qarorlar, shaxs, omillar, rivojlanish, ta'lim, Maktabgacha ta'lim vazirligi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Maktabgacha yoshdagi bolani to'liq tarbiyalash oila, mahalliy jamoatchilik va Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasida yaqin hamkorlik sharoitida amalga oshirilishi benihoya katta ahamiyatga ega ekanligi yoritib berilgan.

Maktabgacha ta'lim vazirligi oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlikka alohida e'tibor qaratmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolani to'liq tarbiyalash oila, mahalliy jamoatchilik va Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasida yaqin hamkorlik sharoitida amalga oshiriladi. Ma'lumki, oila bolalarni ijtimoiylashishi uchun birinchi va eng muhim institutdir. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga oila va mahalliy jamoatchiliklar bilan yaqindan hamkorlik qilish vazifalarini qo'ydi. Bolalarni oilaviy tarbiyalashda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligi boshlang'ich ta'limga bolalarni sifatli tayyorlashning umumiy qoidalarini ishlab chiqishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vaziri Agrepina Shin, o'z nutqida Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining oila va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish zaruriyati hozirgi paytda dolzarb bo'lib kelmoqda. Tarbiyachilar, oilalar va jamoat a'zolari o'rtasidagi kuchli hamkorlik bolalarning rivojlanishi va ta'lim olishiga ijobiy hissa qo'shadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim ushbu hamkorlikni Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida berilayotgan ta'limni kuchaytirish va kengaytirish, shuningdek, uyda va jamiyatda sodir bo'layotgan qiziqish va ta'limni rivojlantirish uchun zarur degan ishonchga asoslanadi. Hamkorlik- bu nima? Hamkorlik- ikkala tomonning ham huquq va majburiyatlari mavjud bo'lib, bir-birlarini layoqatli deb



bilishlari va bir-birlarini sherik sifatida qadrlashlari nazarda tutiladi. Hamkorlik tarbiyachi bilan ishlaydigan oila va jamoa qadriyatlarini, turmush tarzi, o'ziga xos xususiyatlarini tan olish va ularni qadrlash, shuningdek, bolalarning o'qishi va rivojlanishiga hissa qo'shadigan ko'plab muhim usullarni qadrlashlarini talab qiladi. So'nggi 2 yil ichida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish to'g'risida qarorlari qabul qilinganidan so'ng, oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining yangi falsafasi ishlab chiqila boshlandi bu ota-onalar bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish uchun javobgardir va boshqa barcha ijtimoiy institutlar ushbu faoliyatni qo'llab quvvatlashga va to'ldirishga chaqiriladi degan fikrga asoslanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilani qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy tashkilot sifatida bolani tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirishga yordam beradi. Jamiyat va oilaviy ta'lim o'rtasidagi munosabatlar g'oyasi bir qator me'yoriy hujjatlarda, shu jumladan "O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konspsiyasi" va "Umumiy tipdagi davlat va nodavlat Maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi nizomda o'z aksini topgan. (Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori).

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari oila va ota-onalarning rolini to'ldirishlari, ular bilan hamkorlikda ta'lim xizmatlarini rivojlantirishlari kerak. Ota-onalar va boshqa oila a'zolari o'z farzandlarini juda yaxshi bilishganligi sababli, tarbiyachilar ular bilan muloqotda bo'lishlari va ular bilan farzandlariga, umuman, boshqa

bolalarga nisbatan Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'lum qarorlarni qabul qilish jarayonlariga qo'shilishi kerak. Ikkala hamkor tomon bir-birini hurmat qilganda va ikkinchisining hissasini baham ko'rish va qadrlash imkoniyatiga ega bo'lganda, kuchli hamkorlik vujudga keladi. Bolalarni barkamol tarbiyalashga ularning ota-onalari va jamoatchilikning ta'lim jarayonida faol ishtirokisiz erishib bo'lmaydi, ota-onalarning maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan hamkorligi borasidagi qarashlari turlicha bo'lganligi bois Maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitlaridan ota-onalarning qoniqish jihatlari o'zgarib bormoqda. Ba'zi oilalarda ota-onalarning o'z farzandlarini tarbiyalash va shaxsiy rivojlanishi masalalarini hal qilishdan voz kechish tendensiyasi kuchaygan. Ba'zi ota-onalar esa faqat bolaning ovqatlanishi bilan qiziqishadi, ular Maktabgacha ta'lim tashkilotini faqat bolalarni boqadigan joy deb hisoblashadi. Tarbiyachilarning maslahatlarini e'tiborsiz qoldiradigan ota-onalar toifasi ham uchraydi. Bolalarimizning yuqori sifatli ta'lim olishiga, ota-onalarning ehtiyojlari va bolalarning manfaatlarini to'liq qondirishga, bola uchun yagona ta'lim makonini yaratishga faqat erta bolalikdan vasiylik va oila o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning yangi tizimini ishlab chiqqan holdagina erishish mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila uchun ochiqligi- har bir ota-onaga uning bolasi qanday yashayotganini va rivojlanishini bilish va ko'rish imkoniyatini yaratib berishdan iboratdir. Bu muammoli vaziyatlarning paydo bo'lishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasida shaxsiy aloqalarni o'rnatish, har kuni ota-



onalarga bolaning kunni qanday o'tkazganligi, nimani o'rganganligi, qanday yutuqlarga erishganligi haqida ma'lumot berib borish kerak. Shuning asosida ota-onalarning psixologik qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash zamonaviy davrning eng dolzarb vazifasiga aylandi.

Amerikalik psixolog **X.Djaynotning** fikricha, teng aloqa muloqotning 3 asosiy qoidasiga asoslanadi. Birinchidan, ota-onalar barcha vaziyatlarda boladagi ijobiy o'zgarishni ma'qullashga intilishlari kerak, har qanday holatda ham uni kamsitmaslik, bolada ijobiy Men siymoni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Ikkinchidan, bola bilan uning qilgan ishi, bu ishning oqibati, vaziyat haqida gaplashish mumkin, bolaning xarakteri, shaxsi haqida gapirmaslik kerak, uning shaxsini salbiy baholashdan qochish lozim. Kattalarning bolalar haqida fikri, bolaning kelajakdagi taqdiriga tashhis qo'yishga, uni oldindan aytib berishga qaratilmaslik kerak. Maqtash va tanbeh berish ham o'sha qoidaga asosan tuzilishi kerak: tayyor baholash o'rniga, qilingan harakatlar va ular natijasini keng yoritib berish darkor, xulosa chiqarish va baho berishni bolaning o'ziga qo'yib berish lozim. Uchinchidan, aloqa jarayonida kattalar taklif kirituvchi tashabbuskor bo'lishlari kerak. Bunda harakat usuli to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib berilmasligi kerak, balki muammoli vaziyatni hal qilish imkoniyatlarini bola oldiga shunday qo'yish kerakki, bolaning o'zi eng to'g'riroq usulni tanlashni mustaqil amalga oshirsin. Ota-onalar, o'qituvchilar va tarbiyachilar tomonidan bu qoidalarni kundalik hayotda ketma-ket amalga oshirilishi da'volash qoidalarini tarbiya

amaliyotiga kiritishdan boshqa narsa emas. Psixodinamik nuqtai nazardan ota-ona guruhlariga rahbarlik qilishning maqsadi ota-onalarni bu qoidalardan amalda foydalanish malakasi bilan qurollantirishdan iboratdir. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, ota-ona guruhlarining mahsuli ota-onalarni bolaga da'volash munosabatida bo'lishni o'rgatishdan iborat.

Hozirgi vaqtda chet elda ota-onalar trening guruhlarida bolaga maslahat berish amaliyotida mahsuldor ish shakli sifatida juda ommaviy tus olgan. Lekin shuni aytib o'tish kerakki, bolaga qaratilgan bir butun tuzatish tadbirlari sistemasidan ajratilgan holda ota-onalar treninglari, maslahat berish jarayonida tuzatish vazifalarini muvaffaqiyatli hal qila olmaydilar. Respublikamizda ota-onalar guruhlarida bilan ish olib borishning zarurligibolaning psixik taraqqiyoti uchun kattalar bilan muloqot hal qiluvchi rol o'ynashi bilan asoslanadi va tuzatish ishlarini o'tkazishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayniqsa, bu muammo oilaviy psixoterapiya yo'nalishida tuzatish ishlarining eng to'g'ri shakli sifatida jadal ishlab chiqarilmoqda.

Hulosa qilib shuni aytish kerakki oilalar bilan muloqotga kirishish jarayonini boshlash bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotiga borishni boshlashlaridan avvalroq amalga oshirilishi muhimdir va bu muloqot tarbiyalanuvchilar boshlang'ich ta'lim olishga o'tkazilgunga qadar davom etishi lozim. Biz ularga qanday ma'lumotlar kerak ekanligini, ular bizdan aynan qaysi axborotlarni eshitishni istashlarini aniqlashimiz, ota-onalar bilan muloqotga kirishishning eng maqbul yo'lini



aniqlashimiz kerak.Oila bilan samarali hamkorlik qilish uchun ,bittagina istakning o'zi yetarli emas. Guruh tarbiyachilari va ota-onalarning o'zaro munosabatlaridagi asosiy nuqta oilani o'rganishdir. Oilada bolani tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish juda qiyin.

Odatda, buning uchun kuzatuvlar, anketalar va suhbatlar qo'llaniladi. Ota-onalar va tarbiyachilarning birgalikdagi faoliyati bizga bolalarni tarbiyalashda mavjud muammolarni birgalikda aniqlash va ularni hal qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari.- Toshkent 2018 yil.
- 2.F.Qodirova Maktabgacha pedagogika.-Toshkent 2019 yil.
- 3.Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi. 3-modul.-Toshkent.2008 yil
- 4.Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik. Medodik qo'llanma. Toshkent 2020 yil.